THE PERSPECTIVE OF NEW ERA SCIENCES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
www.global-science-review.com
editor@global-science-review.com

TILNING JAMIYATGA VA JAMIYATNING TILGA TA'SIRI: SOTSIOLINGVISTIKA

Idiyeva Erknura Erkinovna,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi: arab tili

Annotatsiya. Mazkur maqolada til va jamiyat o'rtasidagi ikki tomonlama munosabat tahlil qilingan. Tilning jamiyatga ta'siri tafakkur, madaniyat, milliy o'zlik va ijtimoiy muloqot nuqtayi nazaridan yoritilgan. Jamiyatdagi o'zgarishlarning tilga ta'siri lug'at tarkibi, o'zlashmalar, yozuv tizimi, davlat tili siyosati va ijtimoiy guruhlar nutqi misolida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, globallashuv va raqamli muhitning zamonaviy tillarga, jumladan o'zbek tiliga ta'siri ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: til, jamiyat, tafakkur, madaniyat, lingvistik nisbiylik, o'zlashma so'zlar, til siyosati, globallashuv, sotsiolingvistika.

Аннотация: В статье анализируются двусторонние отношения между языком и обществом. Влияние языка на общество рассматривается с точки зрения мышления, культуры, национальной идентичности и социального общения. Влияние общественных изменений на язык изучается на примере словарного состава, заимствований, письменной системы, государственной языковой политики и речи различных социальных групп. Кроме того, анализируется влияние глобализации и цифровой среды на современные языки, в том числе на узбекский язык.

Ключевые слова: язык, общество, мышление, культура, лингвистическая относительность, заимствованные слова, языковая политика, глобализация, социолингвистика.

KIRISH

Til insoniyat jamiyatidagi eng muhim va murakkab hodisalardan biri. U odamlarni bir-biri bilan bog‘lash bilan cheklanmaydi: bilimlar ham aynan til orqali to‘planadi, saqlanadi va keyingi avlodlarga o‘tadi. Jamiyatsiz til bo‘lmaydi, tilsiz jamiyat ham shakllanmaydi. Shuning uchun til va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik tilshunoslik, falsafa, sotsiologiya, antropologiya va psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida o‘rganiladi va hozirgi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Bu bog‘liqlik bir yo‘nalishli emas.

Bir tomondan, til jamiyatning tafakkur tarzini, madaniy qadriyatlarini va milliy o‘zligini shakllantiradi. Ikkinchi tomondan, siyosiy, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlar tilning lug‘at tarkibida, grammatikasida, yozuvida va qo‘llanish doirasida o‘z aksini topadi. Bu ikki jarayon o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-birini doimiy ravishda to‘ldirib va o‘zgartirib boradi. Aynan shu munosabatni o‘rganish sotsiolingvistikaning asosiy vazifasidir.

Maqolaning maqsadi til va jamiyat o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida bu munosabatning o‘zgarishini o‘zbek tili misolida ko‘rsatishdir.

ASOSIY QISM

Til va jamiyat muammosi Qadim zamonlardan beri faylasuf hamda tilshunoslarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. XIX asrda V. fon Humboldt tilni shunchaki muloqot vositasi sifatida emas, balki xalq “ruhi”ning ifodasi deb ta’riflagan. Uning fikricha, har bir til o‘z egalariga olamni ma’lum bir tarzda ko‘rish imkonini beradi. Ferdinand de Sossyur esa tilni ijtimoiy hodisa deb atab, uni individual nutqdan (parole) farqli o‘laroq, butun jamiyatning umumiy mulki bo‘lgan tizim (langue) deb tushuntirdi.

XX asrning ikkinchi yarmida sotsiolingvistika alohida fan sifatida shakllandi. Uilyam Labov Nyu-Yorkda olib borgan tadqiqotlarida talaffuzdagi o‘zgarishlar so‘zlovchining ijtimoiy mavqei, yoshi va kasbi bilan bog‘liqligini ko‘rsatib berdi. Joshua Fishman til va ijtimoiy hayot sohalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni – qaysi til qaysi

sohada qo‘llanilishini o‘rgandi hamda kichik tillarning yo‘qolib borish jarayonini tahlil qildi. Bu ilmiy izlanishlar tilni jamiyatdan ayro holda o‘rganib bo‘lmasligini isbotladi.

Sotsiolingvistik nuqtayi nazaridan, til bir xil va o‘zgarmas qolipdagi tizim emas. U hududiy (dialektlar), ijtimoiy (sotsiolektlar) va vaziyatga moslashuvchan (uslublar) kabi ko‘plab xilma-xillikka ega. Bu xilma-xillik jamiyatning tabaqalanishini, kasbiy bo‘linishini va madaniy ko‘p qatlamliligini aks ettiradi.

Til va tafakkur munosabati tilshunoslikdagi eng bahsli masalalardan biridir. Edvard Sepir va Benjamin Uorf ilgari surgan lingvistik nisbiylik gipotezasiga ko‘ra, odam o‘z ona tilining tuzilishiga mos ravishda olamni idrok etadi va tasniflaydi. Gipotezaning kuchli varianti (lingvistik determinizm) tafakkur tilga to‘liq bog‘liq, deb hisoblaydi. Yumshoq varianti esa til tafakkurni to‘liq belgilamaydi, ammo idrok va xotiraga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, deb ta’kidlaydi. Zamonaviy tadqiqotlar kuchli variantni qo‘llab-quvvatlamaydi, biroq yumshoq variantni tasdiqlovchi dalillar ko‘p. Masalan, ranglarni ifodalovchi so‘zlar soni turli tillarda turlicha bo‘lib, bu ranglarni farqlash tezligiga ta’sir qilishi kuzatilgan.

O‘zbek tilida qarindoshlik terminlarining boyligi (aka, uka, opa, singil, amaki, tog‘a, xola, amma, kuyov, kelin, qaynota va boshqalar) jamiyatda oilaviy aloqalarning naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Har bir qarindoshlik munosabati alohida so‘z bilan ifodalanishi bu munosabatlarning ijtimoiy ahamiyati yuqori ekanini bildiradi. Shuningdek, “siz” va “sen” shakllarining farqlanishi, hurmat ifodalovchi qo‘shimchalar va murojaat shakllari muloqot madaniyatidagi hurmat va ierarxiyani aks ettiradi.

Til va madaniyat bir-biridan ajralmaydi: madaniyat tilda shakllanadi, til esa uni asrab, keyingi avlodlarga yetkazadi. Xalqning o‘tmishi, urf-odatlari, e’tiqodi va turmush tarzi maqol, ertak, doston, matal hamda frazeologik birikmalarda mujassam bo‘ladi. Maqollarda el donishmandligi ixcham ifodalansa, frazeologizmlarda xalqning dunyoni qanday ko‘rishi va baholashi aks etadi. Har bir madaniyatga xos

tushunchalarni boshqa tilga to‘liq tarjima qilish ko‘pincha imkonsiz. Masalan, “hashar”, “mahalla”, “oqsoqol”, “mehmondo‘stlik” so‘zlari oddiy narsa yoki hodisani emas, balki butun bir ijtimoiy an’ana va qadriyatlar tizimini anglatadi. Boshqa tilda aniq muqobili bo‘lmagan bunday so‘zlar tilshunoslikda lakunalar deyiladi. Ular tillararo muloqotda va tarjimada tushunmovchilik keltirib chiqarishi mumkin.

Til milliy o‘zlikning eng muhim belgilaridan biridir. Ko‘pgina xalqlar uchun ona tili birlashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Tarixda til uchun kurashlar milliy ozodlik harakatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. O‘zbekiston misolida buni 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishida ko‘rish mumkin. Bu voqea nafaqat lingvistik, balki chuqur siyosiy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lib, milliy o‘zlikni anglash jarayonining muhim bosqichi bo‘ldi.

Til orqali shaxs o‘zini ma’lum bir jamoaning a’zosi sifatida his qiladi. Ona tilini yo‘qotish ko‘pincha madaniy xotira va tarixiy ildizlardan uzilish bilan birga kechadi. Shu sababli tilni asrash va rivojlantirish har bir davlatning ma’naviy siyosatida muhim o‘rin egallaydi.

Til jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish, saqlash va tartibga solish vositasi sifatida xizmat qiladi. Salomlashish, murojaat, rad etish, iltimos qilish kabi nutqiy aktlar jamiyatning odob-axloq me’yorlariga mos ravishda shakllanadi. Til orqali ijtimoiy mavqe, yosh, jins va o‘zaro yaqinlik darajasi ifodalanadi. Muloqot uslubi (rasmiy, ilmiy, publitsistik, so‘zlashuv, badiiy) ijtimoiy vaziyatga qarab tanlanadi. Shuningdek, til ijtimoiy tartibni mustahkamlash vositasidir: qonunlar, ta’lim, ommaviy axborot vositalari va rasmiy hujjatlar til orqali amal qiladi. Tilni bilmaslik esa ta’lim, mehnat bozori va davlat xizmatlaridan foydalanishda to‘siq bo‘lishi mumkin.

Lug‘at tarkibi tilning jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarga eng tez va sezgir javob beradigan qatlamidir. Yangi texnika, kasb, ijtimoiy hodisa va tushunchalar paydo bo‘lishi bilan tilda yangi so‘zlar yuzaga keladi, eskilari esa iste’moldan chiqadi.

Masalan, mustaqillik yillarida o‘zbek tilida “prezident”, “hokim”, “soliq”, “bozor iqtisodiyoti”, “xususiylashtirish” kabi so‘z va atamalar faollashdi. Sovet davriga xos “kolxoz”, “sovxoz”, “partkom” kabi so‘zlar esa tarixiy so‘zlar (istorizmlar) qatoriga o‘tdi. Lug‘at so‘z yasalishi, ma’no kengayishi va ma’no ko‘chishi orqali ham boyib boradi. Masalan, “sichqoncha”, “oyna”, “bulut” so‘zlari kompyuter texnologiyalari bilan bog‘liq yangi ma’nolarga ega bo‘ldi.

Tillararo aloqalar natijasida so‘zlar bir tildan ikkinchisiga o‘tadi. O‘zbek tili tarixan turli madaniyatlar kesishgan hududda rivojlangani sababli arab, fors-tojik, rus va Yevropa tillaridan ko‘plab so‘zlarni o‘zlashtirgan. Arab va fors tillaridan din, ilm-fan, adabiyot va davlat boshqaruviga oid so‘zlar (“kitob”, “ilm”, “davlat”, “adabiyot”, “dehqon”, “bozor”) kirgan. Rus tili orqali esa texnika va siyosat sohasidagi baynalmilal atamalar (“traktor”, “stansiya”, “universitet”) o‘zlashgan. Hozirgi davrda ingliz tilidan kirib kelayotgan so‘zlar (“internet”, “smartfon”, “onlayn”, “startap”, “brend”) ayniqsa ko‘paymoqda. O‘zlashmalar tilni boyitishi mumkin, ammo ularning me’yordan ortiq va asossiz qo‘llanishi tilning o‘ziga xosligiga xavf tug‘diradi. Shu bois o‘zlashmalarni me’yorlashtirish va ularga mos o‘zbekcha muqobillar yaratish muhim vazifadir.

Yozuv tizimining o‘zgarishi jamiyatning siyosiy va madaniy yo‘nalishi bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek yozuvi tarixida bir necha marta o‘zgarish yuz bergan: arab yozuviga asoslangan eski yozuv, 1929-yildan lotin yozuvi, 1940-yildan kirill yozuvi va 1993-yildan qayta lotin yozuviga o‘tish (1995-yilda alifboga tuzatishlar kiritilgan). Har bir o‘tish davr siyosati, ta’lim va madaniy aloqalarga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Lotin yozuviga asoslangan amaldagi alifbo o‘zbek tilining jahon axborot makoniga kirishini osonlashtirgan bo‘lsa-da, uning ayrim kamchiliklari amaliyotda ko‘rinib qoldi. Ikki belgidan iborat harflar (o‘, g‘, sh, ch, ng) va apostrof belgisi imloda ikkilanishlarga, klaviaturada belgilarni turlicha kiritishga va matnlarni qayta ishlashda qiyinchiliklarga sabab bo‘ldi. Shu sababli 2026-yilda alifbo yangilandi.

Qonun loyihasini Oliy Majlis Qonunchilik palatasi 7-iyulda qabul qildi, Senat sentabr oyida ma'qulladi, Prezident Sh. Mirziyoyev esa uni 2026-yil 21-oktabrda, O'zbek tili bayrami kuni imzoladi. Yangi tahrirga ko'ra, alifbo 26 ta harf va 3 ta harf birikmasi o'rniga 28 ta harf va 1 ta tutuq belgisidan tashkil topadi.

Islohot "bir tovush — bir harf" tamoyiliga asoslangan bo'lib, quyidagi o'zgarishlarni nazarda tutadi:

- O' o' → Ö ö;
- G' g' → Ğ ğ;
- Sh sh → Ş ş;
- Ch ch → Ç ç;
- "ng" harf birikmasi alifbodan chiqariladi.

Jamiyat ijtimoiy jihatdan turli guruhlarga bo'linganligi sababli, til ham bir xil emas. Yosh, kasb, ta'lim darajasi, yashash joyi va ijtimoiy mavqega qarab nutq xususiyatlari farqlanadi. Yoshlar nutqida jargon va argo elementlari ko'proq uchraydi, kasbiy guruhlarda esa maxsus atamalar tizimi shakllanadi. Shahar va qishloq aholisi nutqidagi farqlar, shuningdek, dialektal xususiyatlar ham ijtimoiy tabaqalanishning ko'rinishidir. Bunday xilma-xillik tilning kamchiligi emas, balki uning tirikligi va moslashuvchanligi belgisidir. Biroq adabiy til me'yorlarining saqlanishi ham muhim, chunki u jamiyatning barcha a'zolariga umumiy muloqot imkonini beradi.

Globallashuv iqtisodiyot, madaniyat va axborot almashinuvini kuchaytirib, tillar o'rtasidagi aloqalarni jadallashtirdi. Bu jarayonda ingliz tili xalqaro muloqotning asosiy vositasiga aylandi. Ingliz tilini bilish ta'lim, ilm-fan, biznes va texnologiya sohalarida katta imkoniyat berishi bilan birga, boshqa tillarga bosim ham o'tkazmoqda. Olimlarning taxminiga ko'ra, dunyodagi mavjud tillarning katta qismi yo'qolib ketish xavfi ostida. Biroq globallashuv faqat xavf tug'dirmaydi: u tillarning o'zaro boyishiga, tarjima va til o'rganishning rivojiga, madaniyatlararo

muloqotning kengayishiga ham sabab bo‘ladi. Asosiy masala o‘z tilining o‘rnini yo‘qotmasdan, global jarayonlarda faol ishtirok etishdir.

Internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt texnologiyalari til qo‘llanishining yangi sohalarini yaratdi. Yozma va og‘zaki nutq o‘rtasidagi chegara xiralashdi: ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar so‘zlashuv nutqiga yaqin, qisqartmalar va emojilar bilan boyitilgan. Post, blog, komment kabi yangi janrlar shakllandi.

Raqamli muhitning o‘zbek tiliga ta’siri bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

Imlo va yozuv: lotin yozuvida apostrof belgilarining klaviaturada turlicha kiritilishi, “o‘”, “o`”, “o‘” kabi variantlarning aralash qo‘llanishi.

Lug‘at: inglizcha atamalarning ko‘plab kirib kelishi va ularning o‘zbekcha muqobillarini yaratish zarurati.

Raqamli resurslar: elektron lug‘atlar, korpuslar, mashina tarjimasi va nutqni tanish tizimlarining rivojlanishi tilning raqamli kelajagini belgilaydi.

Kontent: internetda o‘zbek tilidagi sifatli ta’limiy va ilmiy kontentning yetarli emasligi.

XULOSA

Tahlil natijalari til va jamiyat o‘rtasida chuqur va ikki tomonlama munosabat mavjudligini ko‘rsatdi. Til jamiyatga tafakkur, madaniyat, milliy o‘zlik va ijtimoiy muloqot orqali ta’sir qiladi: u olamni idrok etish usulini shakllantiradi, madaniy qadriyatlarni saqlaydi va avlodlarga yetkazadi hamda xalqni birlashtiradi. O‘z navbatida, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlar tilning lug‘at tarkibida, o‘zlashmalarda, yozuv tizimida, davlat til siyosatida va ijtimoiy guruhlar nutqida o‘z aksini topadi.

Globallashuv va raqamli muhit zamonaviy tillar, jumladan o‘zbek tili uchun ham yangi imkoniyatlar, ham yangi xavflar keltirmoqda. Bu sharoitda tilni asrash va rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur: ilmiy asoslangan til siyosati, sifatli

ta’lim, atamalar tizimini takomillashtirish, til texnologiyalarini rivojlantirish va so‘zlovchilarning til madaniyatini oshirish. Kelgusida o‘zbek tilining sotsiolingvistik xususiyatlarini, raqamli muhitdagi qo‘llanishini va til siyosatining samaradorligini empirik tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2024.
2. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Toshkent, 2010.
3. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2010.
4. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Toshkent, 1995.
5. Whorf B.L. Language, Thought, and Reality. Cambridge, MA: MIT Press, 1956.